

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

 **“TASDIQLAYMAN”**  
Rektor  **G'.Rahimov**  
\_\_\_\_\_ 2019 y.

**“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI  
DASTURI**

**Toshkent – 2019**

Dastur O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_” sonli bayonnoma)

**Tuzuvchilar:** Bobojonova D.B. – t.f.d., prof.  
Jo‘raev N.Q. – s.f.d., prof.  
Djuraeva N.D. – t.f.n., dots.

## KIRISH

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushalib, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratadigan bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”<sup>1</sup>. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “...har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz”<sup>2</sup>. Chunonchi, ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma’naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, tarixiy xotiramiz qanchalik boy, mazmunli bo‘lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat ulug‘vor ishlarni bajarishga qodir bo‘ladi.

### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

**O‘zbekiston tarixi fani predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.**

O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot ob’ekti.

Tarixni yoritishda milliy qadriyatlar, xalq an’analari va urf-odatlar, diniy e’tiqodlar, turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan yondashuv. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida bu masalalarning yoritilishi. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda moddiy va yozma manbalarning o‘rni hamda ahamiyati.

### **Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi**

Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning makonlari. Vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo‘lgan mintaqalardan biri ekanligi. Qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg‘ulotlari.

---

<sup>1</sup> Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008. – Б.4.

<sup>2</sup> Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамит. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи// XXI ASR, 2016 йил 15 декабрь.

Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari. Mehnat quollarining takomillashuvi. Urug'chilik jamoasi – ona urug'i jamoasining shakllanishi va uning taraqqiyoti.

“Avesto”. Zardushtiylik ta'limoti, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni.

### **O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari**

Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari. Qadimgi Xorazm davlati. Qadimgi Baqtriya davlati. Qadimgi Sug'd (Sug'diyona). “Avesto” - O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim tarixiy manba.

Ahamoniylarning O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. YUnon-makedon qo'shinlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligida O'rta Osiyoga yurishi. Spitamen qo'zg'oloni. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Baqtriya, So'g'diyona davlatlarida boshqaruvning o'rnatilishi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. A.Makedonskiy davlatining parchalanishi. So'g'diyona va Baqtriya Salavkiylar hukmronligining o'rnatilishi. Salavkiylar davlatining inqirozga uchrashi va uning sabablari.

Grek-Baqtriya davlati. Ellinizm. Parfiya, Qang', Dovon davlatlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Kushon davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning. Madaniyat va din. Ichki va tashqi siyosat. Xitoy va Dovon o'rtasidagi munosabatlar.

### **O'zbek xalqining etnik shakllanishi.**

O'zbek xalqining etnik shakllanishi. Turon zaminida turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi. Hozirgi o'zbek xalqining asosini shu hududlarda bir necha ming yillar davomida yashab kelgan massagetlar, saklar, xorazmiylar, baxtarlar, sug'diylar, toxarlar, davanliklar tashkil etganligi. Turli asrlarda boshqa mintaqalar qabila va elatlari bilan tubjoy aholi o'rtasida kechgan etnik jarayonlar.

IX-XII asrlarda qarluqlar, o'g'izlar, qipchoqlar, chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'rni.

XVI asrda O'rta Osiyoga Dashti Qipchoq elatlarining kirib kelishi va mahalliy aholi bilan aralashib, o'troqlashuvi. “O'zbek” atamasining kelib chiqishi. O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohada ijobiy o'zgarishlar. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik.

### **Buyuk ipak yo'li: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari**

Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. “Lojuvard yo'li”, “Shoh yo'li”, “G'arbiy meridianal yo'l”. XIX asrning ikkinchi yarmida uning “Buyuk ipak yo'li” deb atala boshlanishi. Amir Temur davrida Buyuk ipak yo'lining qayta tiklanishi va rivojlanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Buyuk ipak yo'li mavqeining pasayishi. YUNESKO rahnamoligida “Buyuk ipak yo'li” dasturining ishlab chiqilishi, uning vazifalari. Bu dasturning amalga oshishida O'zbekistonni faol ishtiroki.

## **Ilk oʻrta asrlar oʻzbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot**

Oʻrta Osiyoda eftaliylar davlatining shakllanishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, erga egalik munosabatlari. Tabaqalanishning kuchayishi. Dehqonlar, kashovarlar va kadivarlar. Ularning turmushi va jamiyatda tutgan oʻrni.

Mazdak harakatining paydo boʻlishi va uning asosiy gʻoyalari hamda yoʻnalishi.

Turk hoqonligining vujudga kelishi. Turk hoqonligi davrida mamlakatni idora etish usuli. Gʻabruy qoʻzgʻoloni. Turk hoqonligining ikki qismga boʻlinib ketishi. Gʻarbiy turk hoqonligida xoʻjalik va ijtimoiy hayot.

Yurtimizning arablar tomonidan istilo qilinishi. Soliq siyosati. Hiroj, ushr, jizya, zakot, fitr.

Islom dinining yoyilishi. Islom dini taʼlimotini rivojlantirishda Oʻrta Osiyolik islomshunos olimlarining ulkan hissasi. Xalq gʻalayonlari va arab halifaligining zaiflashuvi.

## **IX-XII asrlarda oʻzbek davlatchiligi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot**

IX asr boshlarida Movarounnahrning siyosiy ahvoli. Movarounnahr Somoniylar hukmronligi davrida. Ismoil Somoniy islohotlari. Davlatni boshqarish tartibi. Qoraxoniylarning somoniylarga qarashli viloyatlarni bosib olishi. Qoraxoniylar davlatining ikkiga boʻlinishi. Buxoro – gʻarbiy xonlik markazi. Qoraxoniylar mavqeining zaiflashuvi. Xorazmda hokimiyatning afrigʻiylardan Maʼmuniylar sulolasiga oʻtishi. Gʻaznaviylar davlati. Gʻaznaviylar bilan saljuqiylar oʻrtasidagi toʻqnashuv. Dandanakon jangi. Saljuqiylar davlati. Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasining oʻrnatilishi. Muhammad Xorazmshoh davrida davlatning yanada yuksalishi.

## **IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygʻonish davri. Fan va madaniyat ravnaqi**

“Uygʻonish davri” atamasi. IX-XII asrlar Oʻrta Osiyoda madaniy yuksalishni taʼminlagan omillar va shart-sharoitlar. Markazlashgan davlatlar, hukmdorlarning fan va madaniyat ravnaqiga eʼtibori. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida taraqqiy etishi. Bayt-ul hikma. Xorazm Maʼmun akademiyasi. Tabiiy fanlar. Ijtimoiy fanlar. IX-XII asrlarda islom dini va soʻfiylik. IX-XII asrlarda meʼmorchilik va sanʼat.

## **Moʻgʻullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi.**

Chingizxon (Temuchin) ning moʻgʻullarni birlashtirib kuchli davlat tuzishi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh oʻrtasidagi elchilik munosabatlari. Moʻgʻullarning Oʻrta Osiyoga harbiy yurishlari. Moʻgʻullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi vaziyat. Temur Malikning jasorati. Buxoro va Samarqandning bosib olinishi. Najmiddin Kubro. Jaloliddin Manguberdi jasorati. Chigʻatoy ulusining tashkil topishi. Boshqaruv tartibi. Mahmud Yalavoch. Soliqlar. Zulmning kuchayishi. Mahmud Torobiy qoʻzgʻoloni, uning tarixiy ahamiyati. Maʼsudbekning noib etib tayinlanishi. Chingiziylar orasidagi ichki kurash va uning Chigʻatoy ulusiga taʼsiri.

## **Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot**

Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. Amir Temurning Amir Husayn bilan ittifoqi. “Loy jangi”. Sarbadorlar harakati. Husayn va Temurning Samarqandni egallashi. Ular o‘rtasida nizoning kuchayishi. Amir Temur hokimiyatining o‘rnatilishi. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan davlat tuzishdagi tarixiy xizmati.

Amir Temurning harbiy yurishlari. “Temur tuzuklari” va uning ahamiyati. Amir Temur vafotidan keyin imperiyaning parchalanishi. Movarounnahrda Ulug‘bek hukmronligi. Tashqi siyosat. Mirzo Ulug‘bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi. Ulug‘bek akademiyasi. Xurosonda Husayn Boyqaroning hukmronligi. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati. Temuriylar hokimiyatining inqirozga yuz tutishi, uning sabablari.

## **O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari**

Movarounnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi.

Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II. Obodonlashtirish, madrasa, machit, yangi imoratlar, sug‘orish inshootlari, qurish ishlari.

Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar (Joniylar) sulolasining o‘rnatilishi. Buxoro xonligida hokimiyatning mang‘itlar sulolasiga o‘tishi va xonlikning Buxoro amirligi deb yuritila boshlanishi.

Xiva xonligining tashkil topishi. Elbarsxon. Xiva hokimiyatining Muhammad Rahim qo‘liga o‘tishi. Xonlikda Qo‘ng‘irot o‘zbeklari sulolasining o‘rnatilishi.

XVIII asrda Farg‘ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. Shohruhbiy tomonidan Qo‘qon xonligiga asos solinishi. Qo‘qon xoni Olimxon tomonidan Toshkent, Chimkent, Sayram, Sharqiy Turkiston va Oloy erlarining bo‘ysundirilishi. Qo‘qon xonligidagi ichki kurash. Xalq noroziligining kuchayishi.

## **O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Uning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik**

O‘rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya o‘rtasidagi raqobat.

Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Qo‘qon xonligi hududlariga hujumi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.

Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining bosib olinishi va xonlikning tugatilishi. Rossiya imperiyasi o‘lkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Rossiya imperiyasining o‘lkamizda iqtisodiy hukmronlikni o‘rnatish tadbirlari. Mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va ma’rifiy siyosat.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Jadidlar harakatining yuzaga kelishi. 1916 yilgi xalq qo‘zg‘oloni va uning xarakteri.

## **Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat**

Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobining Turkistonga ta’siri. “Sho‘roi islomiya”, “Sho‘roi ulamo” tashkilotlarining tuzilishi va ularning faoliyati.

Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Sovetlarning yuritgan siyosatida ulug‘ davlatchilik, mahalliy aholini kamsitish ruhining ifodalanishi.

O‘lka musulmonlarining Qo‘qonda chaqirilgan favqulodda IV qurultoyi. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Bolsheviklar hokimiyatining Qo‘qonga hujum qilishi. Qo‘qon fojeasi. Turkiston muxtor hukumatining ag‘darilishi.

Turkiston ASSRning tuzilishi. Harbiy kommunizm siyosati.

Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. “Yosh xivaliklar” tashkiloti. Xiva xonligining ag‘darilishi. “Xorazm Xalq Sovet Respublikasi”ning tuzilishi.

Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. “Yosh buxoroliklar” tashkiloti. Sovetlar hokimiyatining Buxoro amirligi ichki ishlariga aralashuvi. “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi”ning tashkil etilishi.

Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat. Farg‘ona vodiysida qarshilik ko‘rsatish harakatining boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari.

## **Mustabid sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlari va ularning mustamlakachilik mohiyati. O‘zbekistonning ma’naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari**

20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. 1920-1921 yillardagi er-suv islohoti.

O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishning o‘tkazilishi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi. Milliy chegaralanishning salbiy oqibatlari.

Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Qoraqalpog‘iston muxtor jumhuriyatining tashkil topishi.

1925-1929 yillarda o‘tkazilgan er-suv islohoti. Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish siyosati, uning og‘ir oqibatlari. Quloqlashtirish siyosati va uning mudhish natijalari. O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va amaliyoti.

O‘zbekistonda 20-30-yillardagi madaniy hayot. “Hujum” harakati. Eski va yangi alifbo masalalari. Adabiyot va san’at. Ilm-fan.

Sovet tuzumining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari. “18 lar guruhi”, “Inog‘omovchilik”, “Qosimovchilik” guruhlariga haqida uydurma va haqiqat. A.Ikromov, F.Xo‘jaev va boshqa davlat, partiya arboblarning qatl etilishi. Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarning taqdiri. Inson huquqlarining poymol etilishi va uning fojiali oqibatlari.

## **Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O‘zbekiston moddiy va ma’naviy kuchlarining fashizmga qarshi urushga safarbar etilishi. Umumiy harbiy safarbarlik.

Respublikada xo‘jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi.

SSSRning g‘arbiy viloyatlaridan sanoat korxonalarini, o‘quv va ilm maskanlari, madaniyat muassasalari, aholining ko‘chirilib keltirilishi, ularni qabul qilish, joylashtirish ishlari.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoati. Farxod GESi qurilishi. Bekobod metallurgiya zavodining qurib ishga tushirilishi.

Urush yillarida fan va madaniyat. Adabiyot, tasviriy san’at. Teatr va musiqa san’ati.

O‘zbekiston jangchilarining frontda ko‘rsatgan jasoratlari. Urush yillarida bir qator xalqlarning o‘z vatanidan badarg‘a qilinishi va O‘zbekistonga joylashtirilishi.

Urushning tamom bo‘lishi. Fashizmni tor-mor etishda O‘zbekistonning munosib o‘rni.

O‘zbekistonda xotira va qadrlash kuni, uning mohiyati va ahamiyati.

### **Sovet davlatida ma’muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston (1946-1991 yillar)**

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy hayoti.

Sanoat va transport. Angren, Olmaliq, Guliston, Yangier, Navoiy, Quvasoy, Taxiatosh va boshqa yangi sanoat shaharlarining vujudga kelishi.

Respublikamizning agrar xo‘jaligi. Mirzacho‘l, Markaziy Farg‘ona, Qarshi, Sherobod va boshqa xududlarda qo‘riq va bo‘z erlarning o‘zlashtirilishi. Paxta yakkahokimligining oqibatlari, ekologik holatning buzilishi. Orol fojiasi.

50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ma’naviy hayotda mafkuraviy cheklashlar, buyruqbozlikning kuchayishi.

“Qayta qurish” yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot. “Kadrlar to‘dasi”, “Paxta ishi” va ularning salbiy oqibatlari. Farg‘ona fojeasi.

I.A.Karimovning O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi etib tayinlanishi. O‘zbekistonda milliy ongning o‘sib borishi. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi. “Paxta ishi”ning qayta ko‘rilishi va tarixiy adolatning tiklanishi. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi.

1990 yil fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashiga o‘tkazilgan saylovlar. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta’sis etilishi. I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti etib saylanishi. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

### **O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi**

1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning navbatdan tashqari XII sessiyasida O‘zbekiston davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi.

1991 yil 29 dekabrda referendum va umumxalq tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma’qullanishi. Umumxalq saylovida I.A.Karimovning



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Islom Karimov tomonidan mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti sifatida amalga oshirilgan dastlabki islohotlar. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston mustaqilligi xuquqiy asosining yaratilishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”, “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Bunyodkorlik yo‘lidan”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz” va boshqa asrlarida O‘zbekiston mustaqilligining o‘rnatilishi va mustahkamlanishining ko‘rsatib berilishi. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda parlamentarizm taraqqiyoti. Ikki palatali parlament. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining tashkil etilishi. Ijro hokimiyatining mustahkamlanishi va liberallashtirilishi. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining shakllanishi va faoliyati. Qonun ustuvorligi, xuquqiy fuqarolik jamiyati o‘zbek modelining asosiy tamoyillaridan biri sifatida. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish. Ko‘p partiyaviylik. Siyosiy partiyalarning tashkil etilishi. Yangi qonunchilikning asosiy yo‘nalishlari. Qonunchilikning liberalashtirilishi. Demokratik jamiyatga xos saylov tizimining barpo etilishi. O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining erkinlashuvi. Fuqarolar siyosiy faolligining o‘sishi. Fuqarolar yig‘ini. Jamoat birlashmalari, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati.

### **Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyoti**

O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirish yo‘li. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”, uning tamoyillari. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Mustaqillik sharoitida iqtisodiyotda amalga oshirilgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar. Soliq siyosati. Milliy valyuta-so‘mning muomalaga kiritilishi. O‘zbekistonning zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoriga qo‘shilishi. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni va imkoniyatlari.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy barqarorlikning ta‘minlanishi va taraqqiyot ko‘rsatkichlarining o‘sishi. Bozor iqtisodiyoti davrida kuchli ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy barqarorlikning ta‘minlanishi. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi. AQSh, Evropa va Osiyoning ilg‘or davlatlari bilan aloqasi. O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning o‘rni. Xorijiy sarmoyalar, texnologiyalarning yurtimizga kirib kelishi. Qo‘shma korxonalarining tashkil topishi va ularning faoliyati.

Mustaqillik yillarida ma’naviy hayot. Milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk bobolarimizning ma’naviy merosining tiklanishi va yuksalishi. Mustaqillik tufayli xalqimiz ruhiyatida sodir bo‘lgan ma’naviy o‘zgarishlar, ruhiy ko‘tarinkilikni mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekiston davlatining va jamiyatining eng muhim vazifasiga aylanganligi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab

chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma'naviyat ustuvor o'rin egallaganligi. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi mezonlardan biri ekanligi. Ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanishi hamda mamlakat va millat taraqqiy etishi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida ma'naviyat masalalarining yoritilishi. Tarixiy xotira, diniy va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi. Birinchi Prezident I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" hamda "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarlarining mazmun-mohiyati. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi, uni amalga oshirilishi, erishilgan yutuqlar ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmun-mohiyati.

O'zbekistonda 2016 yil 4 dekabrda Prezident saylovining o'tkazilishi. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashining qo'shma yig'ilishida O'zbekiston Prezidentining vazifa va vakolatlari bajarishni vaqtincha yuklash masalasi bo'yicha qarori. Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga saylov jarayonidagi saylovoldi dasturining mazmun-mohiyati. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan ma'ruzasining mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati (2018 yil 28 dekabr).

### **O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi**

O'zbekistonning geosiyosiy imkoniyatlari. Mudofaa va Tashqi ishlar vazirliklari. Milliy xavfsizlik xizmati. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning tamoyillari. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi. O'zbekiston Respublikasining BMT, EXHT ga a'zo bo'lishi va ular bilan ko'p tomonlama hamkorlikning yo'lga qo'yilishi va kengayib borishi. SHanxay hamkorlik tashkiloti.

Respublikamizning xalqaro ixtisoslashgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy tashkilotlar bilan aloqalari.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi qardosh mamlakatlar bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorligi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning muhim o'rni. Xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi. Qo'shma korxonalarining tashkil topishi va ularning faoliyati.

**2018-2019 o‘quv yilida bakalavriat bosqichi bitiruvchilari uchun  
“O‘zbekiston tarixi” fanidan YAkuniy Davlat attestatsiyasi test-sinov  
savollari uchun asos bo‘lgan mavzular**

1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, ob’ekti va uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari.
2. O‘zbekiston – insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri.
3. Avesto – O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi muhim manba.
4. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi.
5. O‘rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanishi. Qadimgi davlat uyushmalari.
6. Buyuk Ipak yo‘li va hozirgi zamon.
7. O‘rta Osiyo eftalitlar davrida. Turk hoqonligi.
8. O‘rta Osiyoning arablar tomonidan zabt etilishi va islom dinining tarqalishi.
9. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyodagi davlatlar, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
10. O‘rta Osiyo xalqlari Uyg‘onish (Renessans) davrida. Ilm-fan ravnaqi.
11. O‘rta Osiyo xalqlarining mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi kurashi. Jaloliddin Manguberdi.
12. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.
13. “Temur tuzuklari”ning mohiyati va uning tarixiy ahamiyati.
14. Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi va uning oqibatlari.
15. O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi va uning mustamlakachilik siyosati. Chorizm zulmiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik.
16. Turkiston, Buxoro va Xivada sovet hokimiyatining o‘rnatilishi.
17. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.
18. XX asr 20-30-yillarida O‘zbekistonda sovet davlatining iqtisodiy va madaniy siyosati. Siyosiy qatag‘onlik.
19. O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida.
20. XX asrning 50-80-yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.
21. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.
22. O‘zbekistonda huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.
23. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati.
24. O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirish yo‘li. “O‘zbek modeli”.
25. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi iqtisodiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyot.
26. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g‘oyaning ahamiyati.
27. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va uni amalga oshirish jarayoni.
28. Jamiyat a’zolari ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zaruriyati.

29. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.
30. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo hududida tinchlik va barqarorlik muammolari bo‘yicha tashabbuslari.
31. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida tarix fanining dolzarb masalalari.
32. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarining mazmun-mohiyati.
33. I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarining mazmun-mohiyati.
34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun-mohiyati.
35. Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov jarayonidagi saylovoldi dasturining mazmun-mohiyati.
36. Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan ma‘ruzasining mazmun-mohiyati.
37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasining mazmun-mohiyati.
38. 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishi.
39. 2019 yilning “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” Davlat dasturining mazmun-mohiyati.
40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati (2018 yil 28 dekabr).

**“O‘zbekiston tarixi” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi  
sinovlarida o‘tkazilgan test sinovlarini baholash  
MEZONLARI**

“O‘zbekiston tarixi” fanidan Davlat Attestatsiyasi sinovlari test shaklida o‘tkaziladi. Yuqorida keltirilgan mavzular asosida 800 ta test-sinov savollari ishlab chiqilgan. “O‘zbekiston tarixi” fanidan Davlat Attestatsiyasi bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (*Har bir variant 50 ta savoldan iborat bo‘lib, test savollarini echish uchun 1soat 20 minut belgilanadi*).

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning‘ bilim darajasi</b>
<b>86-100</b>	<b>A‘lo</b>	Qo‘yilgan savollar mohiyati va tarixiy voqealar hamda jarayonlarning mazmunini, Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotni tushungan (43-50 ta test-sinov savolini to‘g‘ri topgan).
<b>71-85</b>	<b>YAxshi</b>	Qo‘yilgan savollar mohiyati va tarixiy voqealar, jarayonlar, shaxslar va sanalarda ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan (36-42 ta test-sinov savolini to‘g‘ri topgan).
<b>55-70</b>	<b>Qoniqarli</b>	Savolning mohiyatini va natijalarni aniqlashda yuzaki yondashgan (28-35 ta test-sinov savolini to‘g‘ri topgan).
<b>0-54</b>	<b>Qoniqarsiz</b>	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas. Noto‘g‘ri javob va ma‘lumot berilgan (0-27 ta test-sinov savolini to‘g‘ri topgan).

**ESLATMA:** Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasi va talaba o‘rtasida test natijalari baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyasiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

## FOYDALANILADIGAN ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1. –Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Tom 2. –Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3. –Toshkent: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Tom 4. –Toshkent: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Tom 5. –Toshkent: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tom 6. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Tom 7. –Toshkent: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz. Tom 8. –Toshkent: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Tom 9. –Toshkent: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmaq kerak. Tom 10. –Toshkent: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Tom 11. –Toshkent: O'zbekiston, 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Tom 12. –Toshkent: O'zbekiston, 2004.
14. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Tom 13. –Toshkent: O'zbekiston, 2005.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yil mustaqil taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 2007.
16. Karimov I.A. O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining e'tirofi. –Toshkent: O'zbekiston. 2007.
17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. Tom 15. –Toshkent: O'zbekiston 2007.
18. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. - Tom 16. –Toshkent:O'zbekiston, 2008. -368 b.
19. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. - 439 b.

21. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. - Tom 19. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. -360 b.
22. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. - Tom 20. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. - 311 b.
23. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. Tom 21. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. - 381 b.
24. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
25. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104b.
26. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 488b.
27. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. Asarlar 1-jild. –592 b.
28. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. Asarlar 2-jild. – 512b.
29. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. –Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
30. Avesto. Yasht kitobi. O‘zbek tiliga M. Ishoqov ilmiy-izohli tarjimalari. – Toshkent: Sharq, 2001.
31. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.
32. A‘zamxo‘jaev S. Turkiston muxtoriyati. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2000.
33. Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li. –Toshkent: Nur, 1992.
34. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). – Toshkent: Fan, 1996.
35. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. –Toshkent: Meros, 1992.
36. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
37. Buniyotov 3. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1998.
38. Bobojonova D. O‘zbekistonda demografik jarayonlarning xususiyati. – Toshkent: Fan, 1995.
39. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: SHarq, 1999.
40. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
41. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999.
42. N.Jo‘raev. Agar ogoh sen. –Toshkent: SHarq, 1998.
43. N.Jo‘raev. Tarix falsafasi. Toshkent: Ma‘naviyat, 1999.
44. N.Jo‘raev. O‘zbekiston tarixi (CHor istilosi davri). Monografiya. Toshkent: SHarq, 2011.
45. N.Jo‘raev. O‘zbekiston tarixi (Sovet mustamlakachiligi davri). Monografiya. Toshkent: Sharq, 2011.

46. N.Jo'raev. O'zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). Monografiya. Toshkent: SHarq, 2011.
47. N.Jo'raev. O'zbekiston mustaqilligi – yangi sivilizatsiya bosqichi. Toshkent: Tafakkur, 2011.
48. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: SHarq, 1998.
49. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – Toshkent: SHarq, 2001.
50. Ibrohimov A. Biz kim o'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2000.
51. Ibrohim Karim. Madaminbek. – Toshkent: Yozuvchi, 1993.
52. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
53. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Meros, 2001.
54. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 1994.
55. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. – Toshkent: Fan, 1996.
56. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – Toshkent: Fan, 1993.
57. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: 2003.
58. Nasimxon R. Turk xoqonligi. – Toshkent: Meros, 1993.
59. Nizomul mulk. Siyosatnoma. – Toshkent: Adolat, 1997.
60. Sa'dullaev A. Qadimgi o'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.
61. Sa'dullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida. – Toshkent: Universitet, 1996.
62. Sa'dullaev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.
63. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
64. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririylati, 1996.
65. Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002.
66. Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi fanidan ma'ruzalar matni – Toshkent: Moliya, 2000.
67. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – Toshkent: Moliya, 2003.
68. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2006.
69. Usmonov Q. O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
70. Sharafiddinov O. Istiqlol fidoiylari. – Toshkent: Cho'lpon, 1993.
71. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Fan, 2001.
72. Sharifxodjaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatini shakllanishi. – Toshkent: Sharq, 2003.
73. Sharifxo'jaev M. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. – Toshkent: SHarq, 2002.



74. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsilotlari. –Toshkent: Yozuvchi, 1999.
75. Eshov B.J. O‘rta Osiyo va qadimgi shaharlar sivilizatsiyasi tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: 2006.
76. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
77. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. –Toshkent: Sharq, 1997.
78. O‘zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sa’dullaev B.Eshov tahriri ostida. –Toshkent: Universitet, 1999.
79. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000.
80. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: SHarq, 2000.
81. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.
82. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. –Toshkent: Sharq, 2001.
83. O‘zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
84. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). -Nukus, 1995.
85. Qurbonov I. Qatag‘on qurbonlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
86. G‘ulomov S., Usmonov Q. Mustaqillik O‘zbekistonga nima berdi. –Toshkent: O‘AJBNT, 2001.
87. G‘ulomov S., Salimov O., Usmonov Q, G‘aniev D. Asrlarga teng yillar. –Toshkent: O‘AJBNT, 2001.

## **QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR**

1. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Uch jildlik. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1984.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Fan, 1993.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild. –Toshkent: Fan, 1968.
4. Aliev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. –Toshkent: Yozuvchi, 1994.
5. Amir Olimxon. Buxoro xalqining xasrati tarixi. –Toshkent: Fan, 1991.
6. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2001.
7. Bobobekov H.N. Qo‘qon tarixi. –Toshkent: Fan, 1996.
8. Bobur Z.M. Boburnoma. –Toshkent: Fan, 1960.
9. Valixo‘jaev B. Xo‘ja Ahror tarixi. –Toshkent: YOzuvchi, 1994.
10. Vatan tuyg‘usi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
11. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. –Toshkent: Mehnat, 1992.
12. Ipak yo‘li afsonalari. –Toshkent: Fan, 1993.
13. Yo‘ldoshev N. Bahovuddin Naqshband. -Buxoro, 1993.
14. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. –Toshkent: Fan, 1988.
15. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. –Toshkent: Fan, 1991.
16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-12. –Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006.

17. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. –Toshkent: Yulduzcha, 1990.
18. Hasaniy M. Turkiston bosqini. –Toshkent: Nur, 1992.